O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida:
UDK:33812017

SABUROVA NASIBA ROZUMOVNA

QISHLOQ HUDUDLARINI IJTIMOIY – IQTISODIY RIVOJLANISHINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANI MISOLIDA)

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Berkinov Bazarbay Berkinovich
Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. QISHLOQ HUDUDLARINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI MODELLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI 12

1.1 Qishloq aholisi farovonligini oshirish va hududning rivojlanish samaradorligini baholash mezonlari 12

1.2 Qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining maqsadi, vazifalari va modellashtirish tamoyillari 21

1.3 Qoraqalpog'iston Respublikasi va uning Xo'jayli tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati 31

I bob bo'yicha xulosalar 42

II BOB. QISHLOQ HUDUDLARI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONLARINING MODELLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH 44

2.1 Modellar tizimini ishlab chiqish tamoyillari va axborot bazasi platformasini yaratish 44

2.2 Qishloq hududida mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni taqsimlash modellari 51

2.3 Qishloq hududida ijtimoiy soha rivojlanishini prognozlash modeli va algoritmlari 61

II bob bo'yicha xulosalar 72

III BOB. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XO'JAYLI TUMANI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI PROGNOZLASHTIRISH 73

3.1. Tuman qishloq xo'jaligi rivojlanishining tahlili va istiqboli prognozi . 73

3.2. Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish modeli 88

3.3. Xo'jayli tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini ekonometrik modellashtirish va uning prognozlari 103

III bob bo'yicha xulosalar 113

XULOSA 115

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 117

ILOVALAR 129

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida agrar islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida va aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ular eksportini ko‘paytirish, shuningdek, qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik qishloq hududlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. “Qishloq hududlari ishchilarini uy-joy bilan ta’minlashning o‘rtacha darajasi Germaniyada 54,4 foiz, Norvegiyada 45,5 foiz, Polshada 52,2 foiz, Shveytsariyada 65,7 foiz, Italiyada 42,4 foiz, Qozog‘istonda 45,6 foiz, Ozarbayjonda 46,5 foizni tashkil etadi”[1]. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotining barqaror va muvozanatli o‘sishini ta’minlashda qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv qishloq hududlari salohiyatini samarali baholash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi nomutanosibliklarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Jahonda kechayotgan global inqirozlar vaziyatining hozirgi sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda iqtisodiy va texnologik samaradorlik darajasini oshirish masalalariga yo‘naltirilgan qator izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy iqtisodiyotda mehnat va boshqa iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy iqtisodiyot samaradorligining uzoq muddatli farovonlikka ta’sirini baholash, global iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishlariga aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan moslashuvchanligini ta’minlash, sanoat ishlab chiqarishida raqamlashtirish, zamonaviy innovatsion ishlanmalar salmog‘ini oshirish kabi masalalar bu borada

[1] https://w3.unece.org/PXWeb/ru/CountryRanking?IndicatorCode=11

amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston agrar iqtisodiyotida bozor munosabatlarini jahon andozalariga mos rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi eng muhim shartlardan biri bo‘lib qishloq hududlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va xo‘jalik yuritishning iqtisodiy usullaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hisoblanmoqda. Shu bilan bir vaqtda murakkab ekologik sharoitda yashovchi aholining manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olib, xom-ashyo va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari iste’moli va eksportini, qayta ishlash korxonalari, infratuzilmalarini yanada rivojlantirish Yangi O‘zbekiston strategiyasida muhim vazifalar qatoriga kiradi[2]. Bularning barchasi tumanlarda qishloq xo‘jalik tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish, natijada qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini mustahkamlash, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va ijtimoiy xizmat bilan ta’minlash darajasini oshirishga keng yo‘l ochadi. Ushbu jarayonlarni tadqiq qilishning samarali vositalaridan biri – bu qishloq hududlari rivojlanishini modellashtirish va prognoz qilish usullarini ishlab chiqish hisoblanadi. Shu munosabat bilan, kichik va o‘rta qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari modellari va algoritmlarini ishlab chiqish tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga tuman qishloq hududlari rivojlanish dasturlari bilan bog‘liq muhitda axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish platformasi asosida ko‘p variantli qarorlarni asoslashga imkoniyat beruvchi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning hozirgi bosqichdagi ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son ““O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, - 2021. – 464 b.